

AMIR TEMUR QO'SHININI HARBIY YURISHLARINING MUHANDISLIK TA'MINOTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15265625>

Artikbayev Dilshod Tashpulatovich

*zaxiradagi podpolkovnik,
O'R QK Akademiyasi kafedra dotsenti*

Annotatsiya

quyidagi maqolada Amir Temur qo'shinini urushlar va harbiy yurishlarda muhandislik ta'minoti, ushbu ta'minotning rivojlanishi hamda takomillashishi yoritilgan.

Kalit so'zlar

Amir Temur, qal'a, devor, porox, naft, kechuv, to'siq, lahim, ko'prik, ra'd, mondul, Grek olovi.

Аннотация

в данной статье освещены инженерное обеспечение сражений и военных походов войск Амира Темура, его развитие и совершенствование.

Ключевые слова

Амир Темура, крепость, стена, порох, нафт, переправа, заграждения, подземный ход, тоннель, мост, ра'ди, мондул, Греческий огонь.

Annotation

this article highlights the development and improvement of engineering support for the battles and military campaigns of Amir Temur.

Keywords

Amir Temur, fortress, wall, powder, naft, crossing, barriers, underground passage, Greek fire.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyati, harbiy mahorati to'g'risida ko'pgina asarlar yozilgan va dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan. Amir Temurning jahonshumul obro'-e'tibor va shon-shuhrat topishidagi bosh omil – bu uning sarkardalik iste'dodi, harbiy mahorati deb hisoblanadi. Uning jahon harbiy san'atiga qo'shgan ulkan hissasi to'g'risidagi ko'pgina ma'lumotlarga egamiz.

Buyuk lashkarboshi va novator, harbiy tashkilotchi sifatida Amir Temur o'ta intizomli armiya tuzishga, harakatlar chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona

boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni mohirona bosib o'tishga, armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga muyassar bo'lgan.

Amir Temur faoliyati davrida harbiy san'atga doir bo'lgan yangiliklar kiritdi va butun hayoti davomida bu yo'nalishda izlanishda bo'ldi, shu bilan birga harbiy muhandislik san'atini rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

O'sha davrning tarixchilari qo'lyozmalari va hozirgi davrning ilmiy asarlari ma'lumotlariga ko'ra Amir Temur qo'shini tarkibida mustahkam qal'a va qo'rg'onlarni qamal qilishda, dushman kuchlariga qirg'in keltirishda samarali qurol hisoblangan, ichiga yonuvchi modda - naft solingan ko'zachalar, irg'ituvchi o't sochish quroli - ra'dning ishlashini ta'minlovchi maxsus to'pchilar - ra'dandozlar mavjud bo'lgan [1].

XIV - XVI yuzyilliklar O'ria Osiyo hududida o'tsochar qurolning paydo bo'lishi xususida so'z yuritgan A.Belenitskiy Amir Temur cherigida ra'd otuvchi, ya'ni **ra'dandozlar** soni 10 ming kishidan iborat bo'lganligini ta'kidlaganda, bizningcha, yuqorida Shomiy tomonidan keltirilgan ma'lumotga suyangan bo'lishi kerak [11]. To'p-ra'd Amir Temur tomonidan birinchi marta 1379 yilda Urganchni qamal qilishda ishlatilgan [1, 3].

Amir Temur qo'shini safida, hozirgi muhandislik qo'shinlari vazifalariga o'xshash vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar va mutaxassislar bo'lgan. Bu bo'linmalarda katapultalar, suyuq yonuvchi moddalarni uloqtiruvchi qurilmalar, daryolar ustida ko'priklar tashkil qiluvchi, qal'a devorlari ostiga naqb (yer osti yo'li) kavlovchi va devorlarni tagida olov yoqib devorni yiqituvchi mutaxassislar bo'lgan [3, 4, 5].

Harbiy harakatlarni olib borishda o'sha davrning ilg'or ilm va texnika o'chog'i bo'lgan Xitoy manbalaridan keng foydalanilgani ma'lum (1-rasm) [6]. Xitoyning harbiy ilg'or ilmi O'rta Osiyoga Chingizxon tomonidan olib kelinib Amir Temur davrida rivojlandi. Bunga porox va yonuvchi naftni misol qilishimiz mumkin.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra porox Xitoyda 682 yilda kimyogar Sun Simyao tomonidan ixtiro qilingan va keyinchalik jangovar harakatlarda samarali qo'llangan. O'sha davrdagi poroxning tarkibiy moddalar ulushi aniq ma'lum emas. Bizning fikrimizcha tutunli (qora) poroxni tarkibi mexanik aralashma bo'lib, bunda selitra 75%, ko'mir 15% va oltingugurt 10% ni tashkil qilgan [6].



1-rasm. Xitoy armiyasida poroxni qo'llash

Amir Temur qo'shini tomonidan qala va shahar istehkomlarini ishg'ol qilishning o'ziga xos usuli bo'lgan. Shahar devorlari tomoniga yer osti yo'li - naqib qazilgan, devorlar yonida unidan baland bo'lgan tuproqdan uyum - sarkub (2-rasm) hosil qilingan [1, 7].

Tuproq uyumidan istehkom himoyachilariga o'q uzilgan, qazilgan naqib bo'ylab shahar ichiga yorib kirilgan yoki devor ostiga kavlangan naqabda o't yoqilib devor qulatilgan. Sarkub tuproq uyumini hosil qilish uchun qo'shin tarkibidan "Cherik" nomli bo'linma jalb qilingan va uning tarkibi ma'lum bir jangovar harakatlarda 10 ming kishiga yetgan. Lozim topilganda "Cherik" sifatida tajribali jangchilar boshchiligidagi mahalliy aholi, asirlar mehnatidan foydalanilgan.

Nizomuddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida Amir Temur yurishlar chog'ida manjaniq va arroda singari toshotar aslahalar qatori, ra'd hamda *tiri charx* kabi o'tsochar moslamalardan keng istifoda etganini bir necha o'rinda ta'kidlagan. Chunonchi, 1394-yilning 14- iyunida Sohibqiron cherigi Sharqiy Anato'liyadagi Arzirum yaqinidagi o'ta mustahkam Avnik hisorini qamal qilishga kirishadi. Qal'a muhosarasiga Amir Temur manjaniq, arroda, ra'd va tiri charxlardan hisorni o'qqa tutishga farmon bergan. Toshotar va o'tsochar asboblardan berilgan zarba oqibatida hisordagi talay imoratlar vayron bo'lgan. Biroq hisor mudofaachilari qarshilik ko'rsatishda davom etavergan. Shundan so'ng Amir Temur bo'yrug'iga muvofiq hisor devori yonida undan baland *sarko'b* qurilgan, ichkariga kiradigan suv yo'llari to'sib qo'yilgan. Sarko'blardan hisordagilar turli qurollardan o'qqa tutilgan. Ortiqcha qarshilik ko'rsatishning foydasi ham, iloji ham yo'qligini anglagan Misr birinchi avgust kuni hisordan tashqariga chiqib, taslim bo'lgan [1, 8].



2-rasm. Qamal qilingan shahar devori yonida hosil qilingan «Sarkub» tuproq uyumi

Bundan tashqari, porox yoki naft solingan ko'zachalarni jang vaqtida dushmanning otliq va piyoda qismlarini sarosimaga solish, jangovar aravalar va fillar safini yorish va talafot yetkazish uchun ham ishlatilgan. Yondiruvchi modda naft solingan ko'zachalar plik yoqib dushman safiga uloqtirilgan. Keyinchalik, janglarda granata (porox solingan idishlar) uloqtirish uchun mo'ljallangan bo'linmalar tashkil qilinib, ular tomonidan poroxga tosh parchalari qo'shib uloqtirilgan.

O'sha davrlarda Amir Temur qo'shinida mavjud bo'lgan va ko'pgina Osiyo xalqlari uchun bu yangilik bo'lgan. Amir Temur tomonidan porox va naft solingan idishlar Qutul Hamzaga qarshi Damashq ostonasidagi jangda, Yildirim Boyazitga qarshi Anqara ostonasidagi jangda katta samara bilan qo'llangan.

Ushbu moddalarning tarkibi hozirgacha ma'lum emas. bizning fikrimizcha naft – yonuvchi modda “Grek olovi” kabi tarkibdan tashkil topgan bo'lishi mumkin. “Grek olovi” taxminlarga ko'ra naft, turli moylar, oltin gugurt, selitra yoki ohak bo'lishi mumkin.

Sohibqiron Amir Temur 1398 yilda Dehliga yurishida Hindiston qo'shining asosini tashkil qilgan fillarga qarshi olovdan, ya'ni naft solingan ko'zachalarni ularning ustiga uloqtirish va fillarning oyog'lari ostiga uchli ayrilarni tashlash bilan fillar hujumini bartaraf qilishga muvofiq bo'lgan. Bu usuldan uning avlodi bo'lmish Zahriddin Muhammad Bobur ham 1526 yilda Hindistonni egallashda samarali foydalanadi. 3 rasmda dunyo muzeylarida saqlanayotgan naft solish uchun mo'ljallangan ko'zacha va temirdan ishlangan uchli ayri ko'rsatilgan.



3-rasm. Naft solish uchun mo'ljallangan ko'zacha va temirdan ishlangan uchli ayri

Amir Temur jang olib borish hududini va qo'shin joylashuv joyini tanlashga katta e'tibor qaratilgan.

Temur tuzuklarining "Jangu jadal, urush maydoniga kirish, qo'shinni saflash va g'anim lashkarini sindirish tuzugi" bo'limida, o'z sarkardalariga quyidagilarni amir qilgan "... amir ul-umaro urush maydonini tanlashda (quyidagi) to'rt narsani nazarda tutsin. Birinchisi - u yerning suvga yaqin-uzoqligi. Ikkinchisi - askar saqlaydigan yerni. Uchinchisi - g'anim lashkari turgan yerdan teparoqda bo'lish va oftobga ro'baro' bo'lmasligini, toki quyosh shu'lasini sipohiyalar ko'zini qamashtirmasin. To'rtinchisi - urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo'lishi lozim" [9].

Harbiy safarlarda qo'shin turgan qarorgoh (dam olish, to'xtash joylari va jangohga tushganda lashkargoh atrofi) to'siqlar bilan o'rab olingan. To'siq sifatida bir-biri bilan zanjir va arqon bilan birlashtirilgan aravalardan (kuran), kavlangan xandaqlardan, yerga ko'milgan nayzasifat shoxlardan (mondulardan), shox-shabbalardan foydalanilgan. Xandaqlardan chiqqan tuproq uyumlari bo'ylab to'siqlar (chaparlar) o'rnatilgan.

Jang vaqtida ham to'siqlardan foydalanilgan. Dushman qo'shini harakatini cheklash uchun uning yo'lida xandaqlar qazilgan, aravalardan kuran qurilgan, otliqlarga qarshi yer sathida zanjirlar tortilgan, fillarga qarshi sanchiq -

mo'ndillardan foydalanilgan [2]. Bu to'siqlardan dushman harakatiga to'sqinlik qilish, harakatini sekinlashtirish, o'zining zaif qanotlarini muhofaza qilish va dushman kuchlariga talafot yetkazish maqsadida foydalanilgan.

Amir Temur tomonidan Anqara ostonasidagi jangda Yildirim Boyazitning jangovar aravalari hujumini to'xtatish maqsadida to'siq sifatida oldindan qoziklar oralig'iga tortilgan zanjir va qalin arqonlar qo'llanilib, Hindistonga yurish vaqtida, Dehli ostonasidagi jangda esa, jangovar fillarga qarshi yerga ko'milgan sanchiq – mo'ndillardan foydalangani to'g'risidagi tarixiy izohlar misol bo'la oladi.

Yurishlar vaqtida qo'shinlarning suv havzalaridan kechib o'tishiga katta e'tibor berilgan. Daryolarning sayoz joylari guzar – kechikka (kechuvga) aylantirilgan va soqchi otliq guruhlar tomonidan qo'riqlangan. Chuqur va enli daryolar ustidan qayiqlar yordamida bog'langan ko'prik orqali og'ir yuklar ortilgan aravalar hamda o'g'ruq (qo'shinni ta'minot qismlari) o'tkazilgan. Suvoriylar ko'pincha otning yugani va yoliga osilgan tarzda, piyodalar esa meshlar ko'magida daryoni kechib o'tgan. Amir Temur yurishlari davrida katta daryolarni kechib o'tishda uning muhandislari tomonidan tezlik bilan qayiqlar ustida katta yog'och ko'prik barpo etilgan, qo'shin o'tib bo'lgach ko'prik yig'ishtirib olingan va shu tariqa qo'shinlarning harakatlanish tezligini, manyovrlarini ta'minlab kelgan. Masalan, Bog'dodga qilingan yurishda, Dajla daryosidan Amir Temur qo'shini bo'sh qayiqlar ustidan qurilgan ko'prik orqali o'tib, Bog'dod amiri qo'shinini aylanib o'tishga erishadi va qo'riqchisiz qolgan shaharni egallaydi. Bu vaqtda Bog'dod amiri ko'p sonli qo'shini bilan boshqa sohilda, ochiq yerda jang uchun tayyor turgan edi, lekin ularning Bog'dod shahriga ko'makka borish harakatlari daryo o'zani bo'ylab bor bo'lgan kechuvlar Temur qo'shinlari tomonidan qo'lga olinganligi munosabati bilan befoyda ketadi. Xuddi shu yo'sinda Amir Temur 1391 yili To'xtamish ustiga qilgan yurishida Ural daryosidan o'tish mumkin bo'lgan 3 ta kechuvda To'xtamish qo'shinlari tomonidan pistirma uyushtirilganligini payqab, ulardan foydalanmasdan, daryo o'zanining yuqori qismidan qo'shinning bir qismini qurilgan ko'priklar orqali o'tqazib, yana bir qismi bilan suzib o'tadi va To'xtamish kutmagan tomondan unga hujum qiladi.

Daryo kechuvlari va ko'priklarni qo'riqlashga Amir Temur tomonidan katta e'tibor berilgan. Ispan qiroli elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z kundaligida Amudaryoni Termiz shahri bo'yida kechib o'tish chog'ida, o'z taassurotlarini shunday yozadi: "Sohibqiron farmoyishiga binoan amal qilinadigan udum bor: daryoning bir qirg'og'idan ikkinchi qirg'og'iga o'tgach, ko'prik Sohibqirondan boshqa hech kim o'tmasligi uchun buzib tashlanadi. Yo'lovchilarni u qirg'oqdan bunisiga qayiqlarda olib o'tadi. Saltanatdan kelayotgan kishi qayoqqa ketayotganligi qayd etilgan yorliqni ko'rsatmasa, berigi sohilga o'tkazilmaydi,

aksincha, Samarqandga hech bir hujjat ko'rsatmasdan o'tish mumkin. Qayiq'larga ko'plab qorovullar tayinlangan..." [10].

Xullas, Amir Temur qo'shini tomonidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan muhandislik tadbirlarini samarali qo'llanish, uning nafaqat buyuk lashkarboshi sifatida, balki uzoqni ko'ra oladigan sarkarda va jang va yurishlar tartibiga yangilik kirituvchi novator sifatida namoyon qiladi. U o'z davrining eng ilg'ori bo'lgan armiyasida boshqa armiyalarga noma'lum bo'lgan harbiy yurish va jang olib borish san'atidan, shu jumladan, harbiy-muhandislik tadbirlaridan unumli foydalangan va ushbu harakat barcha yurishlarida g'alaba qozonishga olib kelgan.

ADABIYOTLAR:

1. Dadaboyev, H.A. Markaziy osiyo hamda Hindistonda o'tsochar qurolining paydo bo'lishida temuriylarning o'rni / H.A. Dadaboyev // Amir Temurning harbiy san'ati: strategiyasi va taktikasi: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to'plami, Toshkent, 2024-yil 4-aprel / O'R QK Akademiyasi, 2024. – B. 20-24.

2. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha)/ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; mas'ul muharrir: D.X. Ziyaeva/ – Toshkent.: Sharq, 2012. – 96 b.

3. Artikbayev, D.T. Amir Temurning muhandislik san'ati / D.T. Artikbayev // O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi "O'zbekiston Armiyasi" ijtimoiy-siyosiy, axborot-tahliliy, ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik jurnali. – 2018. – № 2 (14). – B. 23-25.

4. Marsel Brion. Menkim, sohibqiron – jahongir Temur. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2012. – 572 b.

5. F.X. Usmanov, M.M. Kurganbekov, Ch.D. Ugay. Istoriya voyn i voennogo iskustva. Kniga 1. Drevnyy mir, srednie veka i novoe vremya. – Toshkent.: "Talqin", 2006. – 486 b.

6. Artikbayev, D.T. Porox va muhandislik minalar tarixi / D.T. Artikbayev // European journal of interdisciplinary research and development. – 2024. Vol. 28. june – B.5-10.

7. Artikbayev, D.T. История зарождения инженерных войск / D.T. Artikbayev // European journal of interdisciplinary Research and Development. Volume 33, november – 2024. – B. 51-59.

8. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma, Fors tilidan o'giruvchi Yu.Hakimjonov. - Toshkent: O'zbekiston, 1966. – B.203-207.

9. Temur tuzuklari. – Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr., 1996. – 344 b.

10. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida / Klavixu Rui Gonsales de. Buyuk Amir Temur tarixi (1403 – 1406); tarj., U.Juraev. Sultoniya arxiepiskopi Ioann. Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar. Tarj., B.Ermatov; mas'ul muharrir A.X.Saidov. – Toshkent.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2007. – 208 b.

11. Беленицкий, А.М. О появлении огнестрельного орудия в Средней Азии в XIV-XVI вв / А.М. Беленицкий // Известия АН СССР. Таджикский филиал. – Сталинабад, 1949.

12. Abdurahmonov, S.Y. Harbiy xizmatchilarni yekstremal sharoitlarda yashovchanlik xususiyatlarini rivojlantirishda pedagogikani o'rni / S.Y. Abdurahmonov // International scientific journal "Interpretation and researches" Volume 2 issue 10 (32) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2 Interpretation-and researches №10 (32) 31.05.2024.

13. Зиядуллаев, А. Ш., Юлдашев, Б. Т., Артикбаев, Д. Т., & Норгитов, Ф. Т. (2021). УСЛОВИЯ ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКОГО РАСТВОРЕНИЯ МОЛИБДЕНОВЫХ СОЕДИНЕНИЙ. *Интернаука*, (29), 28-31.